

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR.

Xomitova Feruza Ravshanbek qizi¹¹ ADPI Maktabgacha ta'lif fakulteti

MAXsus pedagogika: logopediya

yo'nalishi 1-bosiqich talabasi

MAQOLA
MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.11.2024

Revised: 29.11.2024

Accepted: 30.11.2024

Ushbu maqolada eshitish kamchiliklarining kelib chiqish sabablari, ular orqali hosil bo'lgan kasalliklar va bartaraf etish usullari haqida olimlarning fikrlari yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*eshitishni buzilishi ,
zaif eshitish , karlik ,
travmalar, shamollah ,
shikastlanish.*

KIRISH. Maxsus pedagogika tarmog'i - surdopedagogika(lotincha "surdus" karlik) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va kishilarning rivojlanishi , ularga ta'lif- tarbiya berish qonunlarini o'r ganuvchi fan. Eshitish zaifligi - eshitish qobiliyatining qisman buzilishidan to to'liq karlikkacha bo'lgan turli darajadagi pasayishidir. U nutqiylar muloqotni qiyinlashtiradi va aholining 2-3% ga ta'sir qiladi, shu bilan birga holatlar soni ko'payadi. Eshitish buzilishlari ichki, o'rtal, tashqi quloqlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va qillloq nervi shikastlangan bo'lsa, ko'p holatlarda karlik, agar o'rtal quloq shikastlangan bo'lsa eshitish pasayishi kuzatiladi. Maktab davrida ovoz taassurotlarining yuqori chastotasi ham, eshitishning yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyati pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolada eshitish nuqsoni Yllzaga kelishiga homiladorlikning noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol o'ynaydi (qizamiq, gripp). Eshitish buzilishi sabablari eshitish sezgilarini tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofi, ximik zaharlanish, tug'ish davridagi travmalar. mexanik travmalar, kuchli ovoz ta'sirlarining akustik ta'siri bo'lishi mumkin. Eshitishning buzilishi o'rtal quloqning o'tkir shamollahshi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Eshitishning qat'iy buzilishi burun va halqum (adenoid,

xronik shamollash) kasalliklari natijasida ham kuzatiladi. Bu kasalliklar chaqaloqlik chog'ida jiddiy xavf soladi.

Karlik - eshitishning mutlaqo yo'qligi (mutlaqo eshitmaslik) yoki pasayishining shunday shakliki, unda og'zaki nutq faqat qisman, eshitish apparatlari (moslamalari) yordamida idrok etiladi. Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqirivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u karsoqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ulaming ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi

Zaif eshitish - har ikkala quloq bilan eshitishning pasayishi, unda nutqni idrok etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, biroq ovoz kuchaytirilganda uni idrok etish mumkin bo'ladi. Eshitishning buzilishi sabablarini ta'riflashda turlicha qarashlar mavjud. Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan mактабгача tarbiya muassasasi hamda mактаб-intematda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak. Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qibiliyati zaif bolalarga karsoqov, tug`ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog`liq buzilganiga qarab yengil, o`rta va og`ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6-8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3— 6 m masofada eshitadi. O`rta darajadagi qulog`i og`ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4-6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1-3 m masofadan eshitadi. Og`ir darajali qulog`i zaif eshitishda bola o`rta me'yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi.

Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishslashda surdopedagoglar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ushbu toifadagi anomal bolalar maxsus kechki maktablarda ta'lim olganlaridan keyin oliy o'quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli bitirib chiqmoqdalar, mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan baravar mehnat qilmoqdalar. Demak, eshitish nuqsonlarini bartaraf etish, to'la kompensatsiyalash, mumkin.

Xulosa:

Xulosa qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ruhiy tuzilishlarini bartaraf etish, uning birlamchi nuqsonni ikkilamchi va uchlamchi nuqsonni yuzaga keltirilganligi maxsus tashkil

etilgan ta'lim tarbiya jarayonida amalga oshadi. Eshitishida nuqsoni bor bolalarga gapirishni qisman bo'lsada logopedlar o'rgatadi. Ortikulyatsion apparat bilan qo'l baravar ishlaydi. So'ngra bola qiyalmasdan asta sekin gapirishni yo'lga quyishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova "MAXSUS PSIXOLOGIYA" T...2013. 110-115-batlar.

2.RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGANBOLALAR DIAGNOSTIKASI "Maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasi P.f.n. dots. D.A.Nurkeldiyeva katta o'qituvchi M.U.Hamidova T...2016. 129-165-betlar.

3.M.U. XAMIDOVA "Maxsus pedagogika" T...2018. 31-betlar.